

O'ZBEKISTONDA ICHKI AUDIT XIZMATLARINING HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH: XALQARO STANDARTLAR VA ILG'OR TAJRIBALAR**Fazilov Said Shavkatovich**

Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat boshqaruvi huquqi mutaxassisligi magistranti.

Chocobaby6939@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.15102569>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda ichki audit xizmatlarining huquqiy asoslari va ularni takomillashtirish yo'llari tadqiq etildi. Davlat moliyaviy nazorati tizimida ichki auditning normativ-huquqiy ta'minoti, huquqiy maqomi va tashkiliy-huquqiy shakllari tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida ichki audit xizmatlari faoliyatining huquqiy asoslarni takomillashtirish uchun "Ichki audit to'g'risida"gi qonunni qabul qilish, ichki audit xizmatlarining huquqiy mustaqilligini ta'minlash mexanizmlarini yaratish, xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish zarurligi aniqlandi. O'zbekistonda ichki audit xizmatlarining huquqiy maqomini mustahkamlash bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: normativ-huquqiy baza, davlat moliyaviy nazorati, huquqiy mustaqillik, ma'muriy javobgarlik

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАВОВОЙ БАЗЫ СЛУЖБЫ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА В УЗБЕКИСТАНЕ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ И ЛУЧШИЕ ПРАКТИКИ

Аннотация. В данной статье исследованы правовые основы служб внутреннего аудита в Узбекистане и пути их совершенствования. Проанализированы нормативно-правовое обеспечение, правовой статус и организационно-правовые формы внутреннего аудита в системе государственного финансового контроля. В результате исследования выявлена необходимость принятия закона «О внутреннем аудите», создания механизмов обеспечения правовой независимости служб внутреннего аудита, имплементации международных стандартов в национальное законодательство. Разработаны предложения по укреплению правового статуса служб внутреннего аудита в Узбекистане.

Ключевые слова: нормативно-правовая база, государственный финансовый контроль, правовая независимость, административная ответственность

IMPROVING THE LEGAL FRAMEWORK OF INTERNAL AUDIT SERVICES IN UZBEKISTAN: INTERNATIONAL STANDARDS AND ADVANCED PRACTICES

Abstract. This article examines the legal framework of internal audit services in Uzbekistan and ways to improve them. The regulatory support, legal status and organizational-legal forms of internal audit in the system of state financial control were analyzed. The study

identified the need to adopt the law "On Internal Audit", create mechanisms to ensure the legal independence of internal audit services, and implement international standards into national legislation. Proposals have been developed to strengthen the legal status of internal audit services in Uzbekistan.

Keywords: regulatory framework, state financial control, legal independence, administrative responsibility.

SUMMARY

This study examines the legal framework of internal audit services in Uzbekistan, identifying key shortcomings and proposing solutions based on international standards and best practices. The research employs a comprehensive methodological approach combining comparative legal analysis, systematic document review, and evaluation of regulatory frameworks across multiple jurisdictions. The author analyzes primary sources including Uzbekistan's legislation on financial control, international audit standards (particularly INTOSAI and IIA frameworks), and secondary sources from legal and financial scholarship. The findings reveal significant gaps in Uzbekistan's legal regulation of internal audit services, particularly regarding their independence, authority, and procedural frameworks. Consequently, the study establishes that the absence of a dedicated law on internal audit creates implementation inconsistencies and undermines audit effectiveness. Moreover, the research demonstrates that existing regulations fail to adequately incorporate international standards, resulting in methodological limitations and reduced audit quality. As a result, the author proposes three primary recommendations: first, the adoption of a comprehensive "Law on Internal Audit" to establish clear legal status for audit services; second, the implementation of specific mechanisms to safeguard the independence of internal auditors from executive interference; and third, the systematic incorporation of international audit standards into national legislation. The benefits of this study include providing policymakers with concrete legislative solutions to strengthen financial governance frameworks. These findings contribute to the broader discourse on public financial management reform in transitional economies and offer practical guidance for improving regulatory systems in comparable jurisdictions.

Kirish

Davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanish, korrupsiyaga qarshi kurashish va moliyaviy nazorat tizimining shaffofligini ta'minlash har qanday davlatning iqtisodiy xavfsizligi va barqaror rivojlanishining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bu borada ichki audit institutining huquqiy asoslarini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ichki audit xizmatlarining huquqiy asoslarini yaratish bo‘yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-avgustdagи "Ta’lim va tibbiyat muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida"gi PQ-3231-son qarori bilan vazirlik va idoralarda ichki audit xizmatlari tashkil etildi [7]. Keyinchalik 2021-yil 27-avgustdagи "Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-6300-son Farmoni [8] hamda 2022-yil 14-fevraldagи "O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida"gi PQ-128-son qarori [9] bilan ichki audit xizmatlarining huquqiy maqomi yanada mustahkamlandi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagи "Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi 416-son qarori ichki audit xizmatlarining huquqiy maqomi, vazifalari, huquqlari va majburiyatlarini belgilab berdi [11]. Ammo mayjud normativ-huquqiy baza ichki audit xizmatlarining samarali faoliyat yuritishi uchun yetarli emas, ularning huquqiy maqomi yetarli darajada aniq belgilanmagan, vakolatlari cheklangan va mustaqilligi to‘liq ta’minlanmagan.

Shu munosabat bilan ushbu maqolaning maqsadi O‘zbekiston Respublikasida ichki audit xizmatlarining huquqiy asoslarini tadqiq etish, mayjud huquqiy muammolarni aniqlash va ularni xalqaro standartlar va ilg‘or tajribalar asosida takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Material va tadqiqot usullari

Tadqiqot jarayonida ichki audit sohasidagi xalqaro huquqiy standartlar va xorijiy qonunchilik tajribalari, milliy qonunchilik hujjatlari, sud amaliyoti materiallari, huquqiy statistika ma'lumotlari va huquqshunos ekspertlar bilan suhbatlar tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi qiyosiy-huquqiy tahlil, tarixiy-huquqiy, tizimli-huquqiy va formal-yuridik metodlarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqot doirasida ichki audit xizmatlari faoliyatining huquqiy tartibga solinishi, huquqiy maqomi va vakolatlari, protsessual kafolatlari tahlil qilindi hamda qonunchilikdagi bo‘shliqlar va kolliziyalar aniqlandi.

Natijalar va ularning muxokamasi

O‘zbekiston Respublikasida ichki audit xizmatlarining huquqiy bazasini tahlil qilish natijasida bir qator muhim muammolar aniqlandi. Birinchi navbatda, mamlakat qonunchiligidagi ichki audit faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonunning mavjud emasligi nazariy va amaliy qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Ichki audit xizmatlarining huquqiy maqomi, vakolatlari, huquqlari va majburiyatlar turli qonunosti hujjatlarida tarqoq holda belgilangan bo‘lib, bu huquqni qo’llash amaliyotida muammolarni yuzaga keltiradi.

Ikkinchiji hatdan, ichki audit xizmatlarining huquqiy mustaqilligi to'liq ta'minlanmagan.

Normativ hujjatlarda ichki audit xizmati vazirlik va idoraning birinchi rahbariga bo'y sunishi belgilangan bo'lsa-da, amalda ularning mustaqil faoliyat yuritishi uchun zarur huquqiy kafolatlar yetarlicha ishlab chiqilmagan. Bu ichki audit xizmatlarining samarali ishlashiga to'sqinlik qiladi, chunki ular o'z vazifalarini to'liq bajarish uchun tashkiliy, moliyaviy va operativ mustaqillikka ega bo'lislari zarur.

Ichki auditning mustaqilligi prinsipi xalqaro standartlarda muhim o'ringa ega. "Ichki audit tashkilot ichida mustaqil, obyektiv ishonch va maslahat faoliyati bo'lib, tashkilotga o'z maqsadlariga erishishda ko'maklashishga qaratilgan" [14, s. 10]. Ammo mustaqillikni ta'minlash o'ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi. Qayyumov A.A. ta'kidlaganidek, "ichki audit xizmatlarining mustaqilligi va xolisligini ta'minlash uchun ularning bevosita tashkilot rahbariga bo'y sunishi kerakligi bilan bog'liq qarama-qarshilik mavjud" [13, s. 48].

Uchinchidan, ichki auditorlarning kasbiy maqomi aniq belgilanmagan. Auditorlar uchun malaka talablari belgilangan bo'lsa-da, ularning kasbiy daxlsizlik kafolatlari, javobgarligi va huquqiy himoyasi masalalari qonunchilikda yetarli darajada tartibga solinmagan. Bu ichki audit xizmatlarida malakali kadrlar tanqisligiga va ushbu sohadagi kadrlar qo'nimsizligining ortishiga olib keladi.

To'rtinchidan, ichki audit natijalari bo'yicha huquqiy ta'sir choralar samaradorligi past.

Ichki audit xizmatlari tomonidan aniqlangan qonunbuzilishlar va moliyaviy xatolarga ta'sir choralarini ko'rish mexanizmlari zaif, berilgan ko'rsatmalarni bajarmaslik uchun javobgarlik choralar yetarli darajada belgilanmagan. Bu audit natijalarining amaliy qiymatini pasaytiradi va audit xizmatlariga bo'lgan ishonchni susaytiradi.

Asadov T.M. o'zining tadqiqotida "ichki audit natijalari bo'yicha ta'sir choralarining samarasizligi tashkilot rahbariyatining audit tavsiyalarini ijro etishdagi sustkashligi bilan bog'liq" ekanligini ta'kidlaydi [1, s. 60]. Bu holat audit natijalarining samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi.

Nihoyat, ichki audit sohasidagi qonunchilikda bir qator bo'shliqlar va kolliziylar mavjud.

Jumladan, ichki audit xizmatlari va tashqi nazorat organlari o'rtasidagi vakolatlar chegarasi aniq belgilanmagan, bu esa vakolatlarning takrorlanishi va ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Shuningdek, audit o'tkazishning yagona standartlari va metodologiyasi mavjud emasligi, xavflarni boshqarish bo'yicha zamонавиy yondashuvlarning to'liq joriy etilmaganligi ham tizimning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mirzayev F.A. qayd etganidek, "davlat moliyaviy nazorati organlari va ichki audit xizmatlari o'rtasidagi vakolatlar taqsimotidagi noaniqliklar tizimning umumiyl samaradorligini pasaytiradi va moliyaviy resurslarning nooqilona sarflanishiga olib keladi" [5, s. 95].

O'zbekistonda ichki audit tizimini takomillashtirish uchun maxsus qonunni qabul qilish, ichki audit xizmatlarining institutsional mustaqilligini ta'minlash, auditorlar uchun kasbiy standartlarni rivojlantirish, audit natijalari bo'yicha ta'sir choralarini kuchaytirish hamda ichki va tashqi nazorat organlari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish zarur bo'ladi. Bu chora-tadbirlar O'zbekistonda davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarish va shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagи "Byudjet mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-100-son Farmonida ichki audit xizmatlariga yangi vakolatlar berilgan [10]. Jumladan, istisno tariqasida, Markaziy bank va tijorat banklaridan byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag'larini oluvchilarning byudjet va davlat qarzi mablag'larining harakatiga doir ma'lumotlarni markazlashgan tartibda so'rab olish vakolati berilgan. Biroq, bu vakolatning protsessual jihatlari, ma'lumotlarning maxfiyligi va huquqiy himoyasini ta'minlash mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Shuningdek, 2025-yil 1-yanvardan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, vazirlik va idoralar, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yirik tashkilotlarda "Xavflarni boshqarish" qo'mitalari tuzilishi belgilangan. Bu qo'mitalarning huquqiy maqomi, vakolatlari, qarorlar qabul qilish tartibi va huquqiy oqibatlari masalalari ham qonunchilikda to'liq ochib berilmaganini ko'rsatadi.

Ichki audit xizmatlari tomonidan o'tkazilgan profilaktik tadbirlar natijasida 852,9 mlrd so'mlik byudjet mablag'laridan samarasiz foydalanishning oldi olingan. Bu ijobjiy natija bo'lsada, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan o'tkazilgan monitoring natijasida xalq ta'limi tizimidagi tashkilot va muassasalar tomonidan amalga oshirilgan 7 ta davlat xaridida 57,7 mlrd so'mlik qonunbuzilishlar aniqlangan. Bu ichki audit xizmatlari faoliyatining samaradorligi yetarli emasligini ko'rsatadi.

Ichki audit sohasidagi asosiy xalqaro standartlar Ichki auditorlar instituti (IIA) tomonidan ishlab chiqilgan Ichki auditning xalqaro kasbiy amaliyot asoslari (International Professional Practices Framework, IPPF) hisoblanadi [14]. IPPF standartlari ichki audit faoliyatining beshta asosiy tamoyilga asoslangan bo'lib, bular mustaqillik va obyektivlik, professional yondashuv va zarur malaka, sifatni ta'minlash va takomillashtirish, xavf-tahlilga asoslangan yondashuv hamda samarali kommunikatsiya kabi tamoyillarni o'z ichiga oladi.

Bu standartlar ichki auditorlar uchun universal metodologik asos bo'lib xizmat qiladi va ular faoliyatining yuqori professional darajasini ta'minlashga qaratilgan.

Rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish natijasida ichki audit tizimlarining o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi. AQSHda ichki audit xizmatlarining yuqori darajadagi mustaqilligi ta'minlangan bo'lib, ular to'g'ridan-to'g'ri direktorlar kengashi qoshidagi audit qo'mitasiga hisobot beradilar. Bu yerda ichki auditning qamrovi keng bo'lib, u nafaqat moliyaviy nazoratni, balki operatsion samaradorlik, strategik maqsadlarga erishish, IT tizimlari va xavflarni boshqarishni ham o'z ichiga oladi. Buyuk Britaniyada ichki audit xizmatlari keng vakolatlarga ega bo'lib, ularning faoliyati davlat sektorida Xazina tomonidan ishlab chiqilgan yuqori standartlar bilan tartibga solinadi va nafaqat moliyaviy nazorat, balki tashkilot faoliyatining samaradorligini oshirish, xavflarni boshqarish va boshqaruva tizimini takomillashtirish bo'yicha maslahatlar berish ham ularning vazifalariga kiradi.

Toshkentboyev Sh.P. rivojlangan davlatlarda ichki audit xizmatlari faoliyatining samaradorligi ularning mustaqilligi, professional standartlarga mosligi va qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatlari bilan bevosita bog'liq ekanligini ta'kidlaydi [15, s. 115]. Bu jihatlarni O'zbekistondagi ichki audit tizimini takomillashtirishda inobatga olish muhimdir.

OECD tadqiqotlariga ko'ra, "samarali ichki audit tizimi korrupsiya risklarini pasaytirishda muhim omil bo'lib, u ichki nazorat tizimining zaif tomonlarini aniqlash va bartaraf etish orqali korrupsiya imkoniyatlarini kamaytiradi" [6, s. 42]. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda ichki audit tizimini rivojlantirish korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Germaniya tajribasi esa ichki audit xizmatlarining yuqori tizimliligini ko'rsatadi. Bu yerda davlat sektori uchun maxsus standartlar (Revisionshandbuch) ishlab chiqilgan bo'lib, ichki audit xizmatlari moliyaviy nazorat bilan bir qatorda, qonunlar va qoidalarga rioxalarga qilingan, operatsion samaradorlik va xavflarni boshqarish masalalariga ham katta e'tibor qaratadi. Janubiy Koreya ichki audit sohasida raqamlı texnologiyalarni keng joriy etish bilan ajralib turadi.

Elektron hukumat tizimi bilan integratsiyalashgan ichki audit platformasi real vaqt rejimida moliyaviy operatsiyalarni kuzatish va tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, Janubiy Koreyada ichki audit natijalari ochiq ma'lumotlar bazasida e'lon qilinadi, bu esa shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

"Davlat sektorida ichki auditning samaradorligi zamonaviy informatsion texnologiyalarning qo'llanilishi, audit jarayonlarining avtomillashtirilishi va ma'lumotlarni tahlil qilishning ilg'or usullaridan foydalanish bilan bevosita bog'liq" [4, s. 115]. Bu yondashuv O'zbekistonda ichki audit sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, samarali ichki audit tizimi faqatgina moliyaviy nazoratni emas, balki xavflarni boshqarish, boshqaruva jarayonlarini takomillashtirish va strategik maqsadlarga erishishni qollab-quvvatlashga qaratilgan bo'lishi, zamonaviy axborot

texnologiyalaridan keng foydalanishi, yuqori darajadagi mustaqillikka ega bo'lishi va xalqaro standartlarga to'liq mos kelishi lozim. Xorijiy davlatlar tajribasi davlat boshqaruvi tizimida ichki audit xizmatlari faoliyatini takomillashtirish, ularning rolini kuchaytirish va samaradorligini oshirish uchun qimmatli amaliy tavsiyalar beradi.

Xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribalar asosida O'zbekistonda ichki audit xizmatlari faoliyatini takomillashtirish uchun bir qator muhim chora-tadbirlarni amalgalash oshirish maqsadga muvofiq. Birinchi navbatda, huquqiy asoslarni takomillashtirish zarur bo'lib, buning uchun ichki audit to'g'risida alohida qonun qabul qilish, IIA standartlarini milliy qonunchilikka to'liq implementatsiya qilish hamda ichki audit metodologiyasini takomillashtirish lozim. Bu choralar ichki auditorlarning mustaqilligi, huquq va majburiyatları, malaka talablari va mas'uliyati masalalarini qamrab oluvchi yaxlit huquqiy baza yaratishga imkon beradi.

Kolinz D. va Mogelov A. o'z tadqiqotlarida "ichki audit sohasida yagona, yaxlit qonunchilik bazasining mavjudligi barqaror audit tizimining shakllanishi uchun zarur shart" ekanligini ta'kidlaydilar [4, s. 120]. Bu fikr O'zbekiston uchun ham dolzarb bo'lib, alohida qonun qabul qilish zarurligini tasdiqlaydi.

Tashkiliy tuzilmani takomillashtirishga qaratilgan tadbirlar ham muhim ahamiyatga ega.

Ichki audit xizmatlarining moliyaviy va operatsion mustaqilligini ta'minlash, vazirlik va idoralarda audit qo'mitalarini tashkil etish hamda xavflarni boshqarish tizimini joriy etish orqali ularning samaradorligini oshirish mumkin. Xususan, audit qo'mitalari ichki audit rejalarini tasdiqlash, natijalarni ko'rib chiqish va takliflarni amalgalash oshirishni nazorat qilish vazifalarini bajarishi, ichki audit faoliyatining tashkilot rahbarligidan mustaqil bo'lishini ta'minlashi lozim.

Hamidova G.R. ichki audit xizmatlari faoliyatining samaradorligini baholash mezonlari nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlarni, balki notijorat xarakterdagi ko'rsatkichlarni, jumladan, xavflarni boshqarish samaradorligi, boshqaruv jarayonlarining takomillashuvi va ichki nazoratning mustahkamlanishini ham o'z ichiga olishi kerakligini qayt etadi [2, s. 82]. Bu yondashuv ichki audit xizmatlarining ro'li va ahamiyatini kengaytirishga yordam beradi.

Kadrlar salohiyatini oshirish yo'nalishida oliy ta'lim muassasalarida "Ichki audit" yo'nalishini rivojlantirish, ichki auditorlar uchun maxsus malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish va amalgalash oshirish, shuningdek xalqaro sertifikatlar (CIA, CGAP, CISA va boshqalar) olishni rag'batlantirish muhim. Qolaversa, ichki auditorlarning kasbiy birlashmasini tashkil etish orqali tajriba almashish, malaka oshirish va kasbiy standartlarni rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi.

Raqamli texnologiyalarini keng joriy etish yo'nalishida "Masofaviy audit" axborot tizimini rivojlantirish, Big Data texnologiyalarini joriy etish, sun'iy intellekt va mashinali o'qitish imkoniyatlaridan foydalanish orqali audit jarayonlarining samaradorligini sezilarli darajada

oshirish mumkin. Bu moliyaviy operatsiyalarni real vaqt rejimida kuzatish, xavflarni oldindan aniqlash va boshqarishga imkon beradi.

Audit jarayonlarini takomillashtirish borasida xavf-tahlilga asoslangan audit yondashuvini keng joriy etish, samaradorlik auditini rivojlantirish va IT auditini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, tashkilot faoliyatining samaradorligi, unumdarligi va natijadorligini baholashga qaratilgan samaradorlik auditini rivojlantirish davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Nihoyat, shaffoflik va hisobdorlikni oshirish uchun ichki audit natijalari to'g'risidagi hisobotlarni (davlat siri yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlar bundan mustasno) e'lon qilish amaliyotini kengaytirish, fuqarolar ishtirokidagi audit tizimini rivojlantirish va audit takliflari ijrosini monitoring qilish tizimini takomillashtirish zarur.

Bu chora-tadbirlar audit faoliyatiga jamoatchilikning ishonchini mustahkamlashga, shaffoflikni ta'minlashga va korrupsiyaga qarshi kurashga xizmat qiladi.

Xulosalar

O'zbekistonda ichki audit xizmatlari faoliyatini o'rganish va tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Mamlakatimizda ichki audit institutining rivojlanishi uchun muayyan huquqiy va tashkiliy asoslar yaratilgan bo'lsa-da, amalda ichki audit xizmatlarining samaradorligi yetarli darajada emas. Buning asosiy sabablari ichki audit xizmatlarining mustaqilligi yetarli darajada ta'minlanmaganligi, malakali kadrlar yetishmovchiligi, metodologik ta'minotning zaifligi va raqamli texnologiyalardan yetarli darajada foydalanilmasligidir.

2. Ilg'or xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, samarali ichki audit tizimi tashkilot faoliyatining samaradorligini oshirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash va korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim vositasi hisoblanadi. Buyuk Britaniya, AQSH, Germaniya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlar tajribasi ichki audit xizmatlarining mustaqilligi, professional yondashuv, xavf-tahlilga asoslangan audit va raqamli texnologiyalardan keng foydalanish samarali ichki audit tizimining muhim shartlari ekanligini ko'rsatadi.

3. O'zbekistonda ichki audit xizmatlari faoliyatini takomillashtirish uchun huquqiy asoslarni takomillashtirish, tashkiliy tuzilmani takomillashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, audit jarayonlarini takomillashtirish hamda shaffoflik va hisobdorlikni oshirish zarur. Bu chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonida xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribalarga tayanish, shu bilan birga milliy xususiyatlarni ham hisobga olish lozim.

4. Davlat moliyaviy nazorati tizimida ichki auditning o'rni va ahamiyatini kuchaytirish uchun ichki audit xizmatlari nafaqat nazorat funksiyasini, balki maslahat berish va qo'shimcha

qiymat yaratish funksiyalarini ham bajarishi kerak. Buning uchun ichki auditorlarning professional malakasi va mustaqilligini ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi.

5.Byudjet mablag'laridan samarali foydalanish, moliyaviy intizomni mustahkamlash va korrupsiyaga qarshi kurashish vazifalari O'zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu vazifalarni samarali amalga oshirishda ichki audit xizmatlari muhim rol o'yaydi. Shu bois, ichki audit tizimini takomillashtirish O'zbekistonda davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lishi lozim.

Minnatdorchiliklar

Muallif ushbu tadqiqotni amalga oshirishda ko'maklashgan barcha vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari xodimlariga, shuningdek qimmatli maslahatlar va takliflar bildirgan ekspertlarga o'z minnatdorchilagini bildiradi.

REFERENCES

1. Asadov, T.M. (2023). Raqamli iqtisodiyot sharoitida ichki audit: muammolar va istiqbollar. Moliya, 4, 56-68.
2. Hamidova, G.R. (2023). Byudjet tashkilotlarida ichki audit xizmatlari faoliyatining samaradorligini baholash mezonlari. Iqtisodiyot va ta'lim, 2, 78-86.
3. INTOSAI. (2019). Oliy audit organlari xalqaro standartlari (ISSAI). Retrieved from https://www.intosai.org/fileadmin/downloads/documents/open_access/ISSAI_100_to_400/issai_200/issai_200_en.pdf
4. Kollinz, D., & Mogelov, A. (2022). Davlat sektorida ichki audit: xalqaro tajriba va milliy amaliyot. Xalqaro moliya, 5, 112-128.
5. Mirzayev, F.A. (2023). Davlat moliyaviy nazorati va ichki audit xizmatlarining o'zaro hamkorlik mexanizmlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2, 89-103.
6. OECD. (2022). Internal Control and Internal Audit: Ensuring Public Sector Integrity and Accountability. Paris: OECD Publishing.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2017). Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida: PQ-3231-son qarori, 2017-yil 21-avgust. Retrieved from <https://lex.uz/docs/3323258>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021). Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida: PF-6300-son Farmoni, 2021-yil 27-avgust. Retrieved from <https://www.lex.uz/uz/docs/-5607471>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari

- faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida: PQ-128-son qarori, 2022-yil 14-fevral. Retrieved from <https://lex.uz/docs/5858712>
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024). Byudjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida: PF-100-son Farmoni, 2024-yil 10-iyul. Retrieved from <https://lex.uz/docs/7015258>
11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2022a). Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida: 416-son qarori, 2022-yil 1-avgust. Retrieved from <https://lex.uz/docs/6136910>
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2022b). Fuqarolar ishtirokidagi audit o‘tkaziladigan obyektni aniqlash va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyati samaradorligini jamoatchilik tomonidan baholab borish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida: 326-son qarori, 2022-yil 10-iyun. Retrieved from <https://lex.uz/docs/6059068>
13. Qayumov, A.A. (2022). O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish istiqbollari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 3, 45-58.
14. The Institute of Internal Auditors. (2017). International Professional Practices Framework (IPPF). Lake Mary, FL: The IIA Research Foundation. Retrieved from <https://na.theiia.org/standards-guidance/Pages/Standards-and-Guidance-IPPF.aspx>
15. Toshkentboyev, Sh.P. (2023). Ichki audit xizmatlari faoliyatini tashkil etishning xorij tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash istiqbollari. Moliya va bank ishi, 1, 112-125.